



Reforms in the Healthcare System

Matlyuba KHADJAMURATOVA¹

Alfraganus University

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2024

Received in revised form

15 November 2024

Accepted 25 November 2024

Available online

25 December 2024

Keywords:

youth,
law,
state,
disease,
healthcare,
medical services.

ABSTRACT

This article discusses the social impact of the state's innovative policy in the healthcare system. This article presents the results of the state's innovative policy in the healthcare system in public life.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss12/S-pp54-60>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar

Kalit so'zlar:

yoshlar,
qonun,
davlat,
kasallik,
sog'liqni saqlash,
tibbiy xizmat.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sog'liqni saqlash tizimida davlatning innovatsion siyosatining ijtimoiy hayotdagi natijasi bayon etilgan.

Реформы в системе здравоохранения

Ключевые слова:

молодежь,
закон,
государство,
болезнь,
здравоохранение,
медицинское
обслуживание.

АННОТАЦИЯ

В данной статье изложены результаты государственной инновационной политики в системе здравоохранения в общественной жизни.

¹ Doctor of Historical Sciences (DSc). Alfraganus University.

KIRISH

Aholini sog'lig'ini saqlash, yosh avlodni sog'lom voyaga yetkazish davlat siyosatidagi dolzarb masala. O'zbekiston Konstitutsiyasining 48-moddasida ta'kidlanganidek, "har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli. Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralarini ko'radi" [1].

MAVZUNI DOLZARBLIGI VA HOZIRGI HOLATI

Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarni metodologik jihatdan tahlil qilish darkor. Prezident Shavkat Mirziyoyev, – tibbiyotdagi islohotlarni sifatli, manzilli amalga oshirsak, odamlar rozi bo'ladi, sog'lig'ini tiklab oladi. Soha mutasaddilari, hokimlar har bir qishloq shifokori bilan, hamshiralar bilan gaplashib, jahon tajribasini o'rganib, chora-tadbirlar ko'rsa, albatta o'zgarish bo'ladi, – degan edi. Buni inobatga olib, ushbu sohadagi islohotlarni o'rganish, tegishli xulosalar chiqarish dolzarb masala.

TAJIRIBA QISMI (TADQIQOTNI AMALGA OSHIRISH)

Islohotlarni natijadorligini ta'minlash uni harakatga keltiruvchi huquqiy asosning sifati va hayotdagi samaradorligiga bog'liq. Respublikada sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish borasida davlatning innovatsion siyosati natijasida huquqiy poydevor yaratildi, amaliyotga tadbiriq etilib, o'zining ijobiy natijasini berdi. Mavjud qonunlar asosida aholini, shuningdek, yoshlarni malakali tibbiy xizmat olishga bo'lgan huquqlari ta'minlanishiga, sog'liqni saqlash tizimini jahon talablari darajasida, zamonaviy uskunalar yordamida jihozlanishiga, xavfli yuqumli kasalliklarni oldini olishga xizmat qildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida respublika hududlarida ijtimoiy holat tang ahvolda edi. Mutaxassislar ma'lumotlarida o'sha davr nafasi ufurib turibdi, ya'ni:

– "har yili 25 mingga yaqin bola yoshiga yetmay olamdan ko'z yummoqda. Ular qo'qqisidan bo'lgan toshqin yoki zilzila qurboni bo'layotganlari yo'q. Bu go'daklar o'limi to'shagi tepasida na televizion kamera, na narozilik bildirayotgan jamoatchilik bor, na qasos olishga da'vat eshitiladi. Bu bolalar o'limini atrofdagilar deyarli sezmaydi, ular bu telba, ammo lekin ajoyib dunyoni ko'rib ulgurmay ko'z yumdilar. Ular o'limiga inson yashaydigan muhit buzilgani tufayli paydo bo'lgan nafas yo'llarining xastaligi va yuqumli ichak kasalliklari, aholi istiqomat qiladigan joylarning sanitariya-kommunal obodonchilik darajasi, jumhuriyat hududida sanitariya-gigiyena sifatining pastligi sabab bo'ldi. Hozirgi kunda qishloqda yashovchi aholining yarmiga yaqini toza suv bilan ta'minlangan, xolos. Shunisi ham borki, bu ko'rsatkich 1985-yilga nisbatan orqaga ketgan. Suv quvurlar orqali berilayotgan suvga har doim ham kafil bo'lish qiyin. Shu vajdan jumhuriyatda yuqumli ichak kasalliklari yiliga bir necha marotaba xuruj qiladi" [2].

– "paxta yakkahokimligi tufayli o'lkamiz ekologiyasi buzildi, turli kasalliklar ko'paydi. Ayollarning aksariyati kamqonlik kasaliga uchrasa, bolalar o'limi haddan ziyod yuqori. Bugun bizning asosiy e'tiborimiz onalar va bolalarni muhofaza qilish, ularning salomatligi uchun kurashga qaratildi" [3].

– "jumxuriyatimiz bolalar o'limi jixatidan oldingi o'rinlardan birida bormoqda. Hozir tug'ilgan har ming bolaning 34 tasi nobud bo'layotir. Jumxuriyatimizda, ayniqsa Farg'ona vodiysi toza ichimlik suvi bilan yetarli ta'minlanmagan. Uchala viloyatda ichimlik suvi tanqis. Bularning barchasi o'tkir ichak va sariq kasalliklarining ko'payishiga olib kelmoqda. Ekologik ahvolning tangligi dard ustiga chipqon bo'lmoqda. Bu borada,

ayniqsa Namanganda ahvol tashvishli” [3]. “Andijon viloyati “shaharlarida demografik holat haqida statistik ma’lumotlarga nazar tashlaganda, unda har ming tug’ilgan boladan o’ttizdan ziyodi, har o’n ming ko’zi yorigan ayollardan 42 tasi bevaqt vafot etayotgani, orfan, asab, xafaqon, oshqozon-ichak xastaliklariga duchor bo’layotgani kishi qalbini larzaga soladi” [3], – kabi bong urishlar gazetalar sahifalaridan o’rin olgan.

“Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o’rganish markazining ma’lumotlariga ko’ra, aholining ichimlik suvi bilan ta’minlanish manbalari suv quvuri (72,2%), artezian qudug’i (11,9%), oddiy quduq (6,3%), ariq (3,6%), suv ombori (3,4%), kanal, daryo (3,0%), import suvi (2,8%), buloqni (0,3%)” [4] tashkil qilgan. Albatta, artezian qudug’i, oddiy quduq, ariq, suv ombori, kanal, daryo, buloq suvlari aholi orasida oshqozon ichak kasalliklarini keltirib chiqaradi.

Samarqand viloyatida o’tkazilgan umumiy tibbiy ko’rik natijasida 102473 nafar o’smir qizning 58,3% (59696 nafar) turli yo’nalishdagi kasalliklarga chalinganligi aniqlandi. Shularning 10,7 foizini ginekologik kasalliklar tashkil [5] etgan.

Bundan tashqari, “Hamdo’stlikning barcha mamlakatlarida sog’liqni saqlashni byudjetdan moliyalashtirish taqchilligi sharoitida shifoxona o’rinlari sig’imining qisqarishi kuzatildi. 1991–1998-yillarda Gruziyada 2,3 barobar, Qozog’istonda 87 foiz, Tojikistonda 44, Turkmanistonda 32, O’zbekistonda 70 va Ukrainada 45 foizga kamaydi. 1995–1998-yillardagi shifoxona o’rinlari soni Ozarbayjon, Qirg’iziston, Moldova va Rossiyada 100 ming aholiga 6-10 foizga, Armaniston va O’zbekistonda 13-17 foizga, Tojikiston va Ukrainada 20-22 foizga, Gruziya, Qozog’iston, Turkmanistonda 30–35 foizga kamaydi. 1999-yilda Qozog’istonda bir shifokorga to’g’ri keladigan aholi soni 200 kishidan ortiq, Rossiya va Ukraina, Qirg’iziston, Turkmaniston va O’zbekistonda 300 dan ortiq, Tojikistonda deyarli 500 kishiga to’g’ri kelgan” [6].

Aholini sog’lig’ini saqlash maqsadida respublika hududlarida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bepul tibbiy yordam ko’rsatish tizimi yaratildi. Tuman (shahar) kasalxonalari qoshida tashkil etilgan shoshilinch tibbiy yordam bo’limlari tun-u kun xalqqa xizmat qilib keldi. Ular avtotransport va kerakli tibbiy uskunalar bilan ta’minlandi.

Darhaqiqat, 1993-yilda aholini sog’lig’ini muhofaza qilgan, ushbu soha rivojlanishiga o’z hissasini qo’shgan shaxslarni mehnatini yuksak baholash va rag’batlantirish maqsadida “Sog’lom avlod uchun” ordeni ta’sis etildi.

“1993-yildan boshlab an’anaviy “Hamshira – 93” respublika ko’rik-tanlovini respublika Sog’liqni saqlash vazirligi va tibbiyot xodimlari kasaba uyushmasi Markaziy Qo’mitasi bilan hamkorlikda” [6] o’tkazilgani bu sohaga e’tiborning yana bir ko’rinishi bo’ldi. Shuningdek, “2003-yilda kuniga 14,5 ming bemorlarga xizmat ko’rsatadigan qishloq vrachlik punktlari foydalanishga topshirildi” [2]. “1997-yilda 1,5 ming bemorga mo’ljallangan shifoxonalar, 1 smenada 117 ming kishini qabul qiladigan poliklinika qurildi” [2].

Hukumat tomonidan xalqaro tashkilotlar ishtirokida 1998-yildan boshlab yo’d tanqisligi bilan bog’liq bo’lgan kasalliklarni oldini olish bo’yicha qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Chunki “O’zbekistonda 25,7 mln. aholidan 1,29 millioni endokrin tizimi kasalliklari tufayli dispanser ro’yxatida turadi, ulardan 774000 nafari bolalar va o’smirlar bo’lib, kasalliklarning umumiy soniga 60 foizni tashkil etadi” [6], – kabi ma’lumotlar keltiriladi hisobotlarda. Bunga sabab sifatida respublikada “yo’d tanqisligi oldini olish to’g’risidagi qonunning qabul qilinmaganligi; osh tuzini qayta ishlash korxonalarining moddiy texnik darajasining zaifligi; osh tuzini yo’dlash bo’yicha nazoratning talab darajasida emasligi; bemorlarni davolash va kasallikning oldini olish uchun dori-darmon

bilan ehtiyoj darajasida ta'minlanmaganligi", – ko'rsatilgan. Bu kasallikka qarshi kurashish maqsadida, "yo'dlangan osh tuzi ishlab chiqarish bo'yicha sanoatning butun bir tarmog'i yaratildi va faoliyat ko'rsatmoqda" [6].

Qishloqlarning iqtisodiy infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga muvofiq, 1999-yilda 146 ta yangi vrachlik punktlari ishga tushirildi. Bolalarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tadbirlari tinimsiz amalga oshirildi.

Sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan tadbirlarga qaramay, turli xil kasalliklar aholi, ayniqsa yoshlar sog'lig'iga salbiy ta'sir qilib keldi. Masalan, "anemiya yurtimizda bir yilda (2006-yil) 700 nafardan ortiq chaqaloq nuqson bilan dunyoga kelishiga, ikki yarim ming bolaning yuqumli kasalliklarga chalinib vafot etishiga, 380 nafar bolaning esa aqliy rivojlanishi qiyin kechishiga sabab" [2] bo'ldi.

"O'zbekistonda mikronutrient tanqisligi haqida hisobotda keltirilishicha: – mamlakatda 6 oydan 24 oygacha bo'lgan bolalarning 60 foizi aqliy va jismoniy rivojlanishning buzilishi xavfi ostida. Sababi: temir tanqisligi;

– har yili 400 mingga yaqin chaqaloq homiladorlik davrida yo'd tanqisligi tufayli aqliy zaiflashuv bilan dunyoga keladi. O'zbekistonda qalqonsimon bez kasalliklari 25-40% ni tashkil qiladi. Aqliy qobiliyat 10-15 foizga kamayadi. Sabab: yo'd tanqisligi;

– O'zbekistondagi bolalarning yarmi (53%) immuniteti pasaygan holda o'sadi, bu esa tez-tez kasalliklarga va yomon rivojlanishga olib keladi. Sababi: A vitamini kamchiligi;

– har yili yosh o'zbek ayollarining bir nechasi homiladorlik va tug'ish vaqtida vafot etadi. Sabab: og'ir yo'd tanqisligi anemiyasi;

– yiliga 5000 ga yaqin chaqaloqlarda tug'ilishdan oldin yoki tug'ilgandan keyin o'lim xavfi ortgan. Sababi: og'ir anemiyaga chalingan onalardir;

– ishchi kuchi unumdorligining pasayishi. O'zbekiston uchun yo'qotishlar taxminan 1,2 YaIMni tashkil qiladi. Sababi: temir va yo'd tanqisligi" [4].

OLINGAN NATIJALAR TAHLILI

15-17 yoshli o'smirlar nafas olish a'zolari kasalliklari, qon va qon yaratuvchi organlar kasalliklari va immun mexanizmini jalb etuvchi ayrim buzilishlar, hazm qilish a'zolari kasalliklari bilan nisbatan ko'p kasallangan. Shuningdek, endokrin tizimi kasalliklari, ovqatlanish tartibsizligi, modda almashinuvi buzilishlari, siydik tanosil tizimi kasalliklari, teri va teri osti kletchatkasi kasalliklari, ko'z va uning qo'shimcha apparati kasalliklari bilan kasallanish nisbatan ko'p uchraygan. 15-17 yoshli o'smirlarning kasalliklarga chalinishi Toshkent shahri, Namangan, Jizzax, Toshkent viloyatlarida nisbatan yuqori bo'lgan. Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida esa boshqa hududlarga nisbatan pastroq daraja kuzatilsada, avvalgi yillarga nisbatan ortib borgan. Kasalliklar bemorni genetik holati bilan birga hududdagi ekologik muhit, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik vaziyat natijasida ham yuzaga kelgan.

Masalan, Orol dengizidagi katastrofaning aholi sog'lig'iga ziyoni, sanoat shaharlari atrofida ekologik muhitning yomonlashuvi, toza ichimlik suviga muhtojlik, noqulay sharoitlar kasalliklarni keltirib chiqargan. Ayrim shaharlarda statsionar manbalardan atmosfera havosiga chiqarilgan zararli moddalar (Olmaliq 128,049 ming tonna, Angren 122,656 ming tonna, Farg'ona 81319 ming tonna va b [7].) insonning kasallanishiga sabab bo'lgan.

Barcha statsionar manbalardan hosil bo'ladigan ifloslantiruvchi qattiq va gazsimon va suyuq moddalar, jumladan, sulfat angidridi, uglevod oksidi, azot dioksidi, azot oksidi, uglevodlar (uchuvchi organik birikmalarsiz) uchuvchi organik birikmalar (UOB), boshqa gazsimon va suyuq moddalardir. Ushbu moddalarning hosil bo'lishi 2013–2016-yillar dinamikasi bo'yicha hisoblaganda, 15661 ming tonnani tashkil etgan.

Davlat tomonidan statsionar manbalardan chiqarilayotgan va ushlab qolinayotgan atmosferani ifloslantiruvchi moddalarni zararsizlantirish choralari ko'rilgan. Masalan, 2013–2016-yillarda 11767,5 ming tonna, ya'ni o'rtacha 74,5% ifloslantiruvchi moddalar ushlab qolingani va zararsizlantirilgan. Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar esa 3893,6 ming tonnadan iborat bo'lgan. 2016-yilda bu sohaga investitsiya kiritildi. Masalan, oqova suvlarni tozalash stansiyalarida 0,1 ming kub. m. oqova suvni tozalash uchun 60967,5 mln. so'm investitsiya kiritildi. Yilda 92,2 tonna zararli moddalarni tutib qolish va zararsizlantirish uchun qurilmani ishga tushirish maqsadida 64966,0 mln. so'm investitsiya yo'naltirildi. Bir kecha kunduzda 0,6 ming kub. m. aylanma suv bilan ta'minlash uchun 16407,9 mln. so'm, bir yilda 0,4 ming tonna ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalanish va ularni qayta ishlash moslamalarini o'rnatishga 159556,2 mln. so'm investitsiya kiritildi.

Sog'liqni saqlashni isloh qilish davlat dasturlari amalga oshirilishi natijasida yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishning prinsipial jihatdan yangi tizimi tashkil etildi. Respublikada ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, shu jumladan, xirurgiya, kardiologiya, ko'z mikroxirurgiyasi, urologiya, akusherlik va ginekologiya, pediatriya, endokrinologiya, terapiya va tibbiy reabilitatsiya, dermatologiya va venerologiya, ftiziatriya va pulmonologiya sohasida yuqori malakali vrachlar bilan to'ldirilgan ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Harakatlar strategiyasini amalga oshirish yillarida respublika markazlarida 150 mingdan ortiq operatsiyalar, shu jumladan, 80 mingdan ortiq yuqori texnologik operativ muolajalar bajarildi, davolashning murakkab va noyob uslublari amaliyotga joriy etildi. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi ma'qullandi. Unga asosan, 373,5 milliard so'm va 100 million AQSh dollari miqdorida mablag' ajratildi, 60 milliard so'm mablag' Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini qurish va ta'mirlashga va 97 million AQSh dollari respublika va hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalarini jihozlashga [8] sarflandi.

Respublikada zamonaviy perinatal markazlari va "Ona va bola skriningi" markazlarining ochilishi homiladorlikni erta aniqlash va tashhis qo'yish, sog'lom chaqaloqlar tug'ilishiga xizmat qildi. Markazlarning moddiy-texnika bazasi yangilandi, yetuk kadrlar bilan ta'minlandi. Xorij tajribasi va zamonaviy usullarni mazkur sohaga olib kirish esa davolashning professional yo'llaridan foydalanishga yordam berdi.

2013–2017-yillarda "Ona va bola skriningi" markazlari hal qilish qobiliyati yuqori bo'lgan biokimyoviy analizatorlar va zamonaviy ultratovush skanerlar bilan jihozlandi. Respublika "Ona va bola skriningi" markazlari chaqaloqlarda va kichik yoshdagi bolalarda irsiy kasalliklarning keng doirasiga tashxis qo'yish uchun yuqori texnologik analizatorlar – tandem mass-spektrometrlar bilan jihozlandi.

Amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida 1,1 milliondan ortiq homilador ayol tekshiruvdan o'tkazildi, bu 21 ming nafardan ortiq rivojlanishida tug'ma nuqsonlari bo'lgan bola tug'ilishining oldini olish imkonini berdi. 1,7 milliondan ortiq chaqaloq tug'ma va irsiy kasalliklar yuzasidan tekshirildi, 2,7 ming nafar bolaga rivojlanishning tug'ma nuqsonlarini bartaraf etish yuzasidan malakali tibbiy yordam ko'rsatildi. "2018–2022-yillar davrida bolalarda tug'ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash Davlat dasturi" [8] tasdiqlandi va asosiy ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Ushbu dastur asosida "Ona va bola skriningi" markazlari faoliyatiga yanada e'tibor kuchaytirildi, chaqaloqlarni

yoppasiga tekshiruvdan o'tkazish, tug'ma va irsiy kasalliklarning birlamchi profilaktikasi bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish, irsiy kasalliklarga chalingan kasallarni davolash samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratildi.

Davlatning innovatsion siyosati xalqni, shuningdek yosh avlodni sog'lig'ini saqlash tizimini isloh qilish jarayonlarida xususiy sektor faoliyatidan samarali foydalanish zaruratini keltirib chiqardi. Davlat sog'liqni saqlash tizimi bilan birga xususiy sektorni rivojlantirishni huquqiy asoslari yaratildi, ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimi, huquq, majburiyat va imkoniyatlari belgilab berildi.

Ushbu sohani moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, kadrlar bilan ta'minlash xususiy tibbiyot sohasiga xorijdan investitsiyalar va yuqori malakali mutaxassislar jalb etishni kengaytirish, shuningdek, tibbiy turizm va tibbiy xizmatlar eksportini rivojlantirishga [8] e'tibor kuchaytirildi.

O'tgan davr mobaynida sog'liqni saqlashning xususiy sektori tomonidan ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar turlari 50 tadan 126 taga ko'paydi. Stomatologiya va kosmetologiya tashkilotlaridan tashqari xususiy tibbiyot tashkilotlari barcha turdagi soliqlar va majburiy ajratmalarni to'lashdan, shuningdek olib kelinadigan yangi tibbiyot asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, ularning ehtiyot qismlari va zarur materiallar uchun bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod etildi. Respublikaning qishloqlarida va olis tumanlarida aholini sog'lig'ini saqlash maqsadida tashkil etilgan mikrofirmalar, kichik korxonalarni ham davlat ro'yxatidan o'tkazishga ruxsat berildi. Ular litsenziyaga ega bo'lgandan boshlab 10 yil davomida soliqlardan ozod etildi. Natijada, xususiy tibbiyot muassasalarining soni 440 taga ko'payib, ularning umumiy soni 4 mingtani [8] tashkil etdi.

XULOSA

“Ana shunday amaliy ishlar natijasida so'nggi o'n yilda rivojlanishida tug'ma nuqsonlari bo'lgan bolalar soni 1,3 barobar kamaydi. 6–15 yoshli bolalar orasida o'tkir yuqumli kasalliklar bilan og'rish 34,4 foizga, pnevmoniyaga chalinish 49,7 foizga, bronxit bilan xastalanish 32,8 foiz va skolioz bilan kasallanish 32,7 foizga kamaydi” [2].

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarining mustahkamlanishi bemorlarni statsionar sharoitida davolash darajasining 2017-yilda 1991-yilga nisbatan 1,6 barobar pasayishiga, poliklinika muassasalariga aholi murojaatlari soni esa 2,2 martaga oshishi va kishi boshiga qatnovlar sonini 6,5 dan 9,7 gacha oshirishga imkon yaratdi [8].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Янги таҳрирда. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023. – Б. 12.
2. Халқ сўзи газетаси, 1991 йил 15 октябрь. – №191.; 2004 йил 11 февраль. – № 29 (3303; 1998 йил 26 февраль. – № 42 (1823).; 2005 йил 25 март – № 59 (3604).
3. Андижоннома газетаси, 1991 йил 18 октябрь. – № 191 (16610); 1991 йил 15 октябрь. – № 196 (16607); 1993 йил 3 июнь. – № 63 (6884).
4. Здоровье для всех: основная цель нового тысячелетия для Узбекистана. – Ташкент, 2006.
5. Маърифат газетаси, 2010 йил 10 апрель. – № 28 (8261).
6. О'з МА, М.37-fond, 1-ro'yxat, 6656-ish.; О'з МА, М.168-fond, 1-ro'yxat, 22 б-ish.; О'з МА, М.37-fond, 1-ro'yxat, 9728-ish.; О'з МА, М.37-fond, 1-ro'yxat, 9728-ish.
7. O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami. 2010–2016. – Toshkent. 2017.

8. <https://lex.uz/docs/3238680>
9. <https://lex.uz/docs/3471720>
10. <https://lex.uz/docs/3150309>
11. <https://lex.uz/docs/3480494>
12. <https://lex.uz/docs/3177800>